

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**SAIDOV IBROHIM ANVAROVICH**

**XO‘JALIK JAMIYATLARIDA DIREKTOR MAJBURIYATLARI  
DOIRASINI BELGILASHNING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.  
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Saidov Ibrohim Anvarovich**

Хо‘jalik jamiyatlarida direktor majburiyatlari doirasini belgilashning qiyosiy-huquqiy tahlili ..... 3

**Saidov Ibrokhim Anvarovich**

Comparative legal analysis of determining the scope of director’s duties of companies ..... 25

**Саидов Ибрагим Анварович**

Сравнительно-правовой анализ определения круга обязанностей директора в хозяйственных обществах ..... 43

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works

Список опубликованных работ..... 47

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**SAIDOV IBROHIM ANVAROVICH**

**XO‘JALIK JAMIYATLARIDA DIREKTOR MAJBURIYATLARI  
DOIRASINI BELGILASHNING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.  
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Yu1932-raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD) Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Xodjayev Baxshillo Kamolovich</b> yuridik fanlar doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Karaxodjayeva Dilorom Mamirovna</b> yuridik fanlar doktori, professor <b>Berdiyarov Rahmatjon Tojinorovich</b> yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSs.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 25-oktabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1428-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 10-oktabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil 10-oktabrdagi 88-son reyestr bayonnomasi).

**I.R. Rustambekov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**D.Y. Xabibullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

**S.S.Gulyamov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda direktorlarning majburiyatlari korporativ huquqning eng muhim institutlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu majburiyatlar sodiqlik, oqillik va halollik kabi fundamental huquqiy tamoyillarga tayangan holda shakllangan bo‘lib, ularning tashkiliy shakllari va doktrinal asoslari turli huquqiy tizimlarda turlicha talqin etiladi. Biroq, bu majburiyatlarning mazmun-mohiyati umumiy bo‘lib, ular, avvalo, vakolatdan chetga chiqish va uni suiiste‘mol qilinishini oldini olish, boshqaruv jarayonlarida adolat va shaffoflikni ta‘minlash hamda direktorlarning faoliyatlari uchun javobgarlikni huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan. Direktor majburiyatlari nafaqat kompaniya manfaatlarini himoya qilishga, balki korporativ boshqaruv tizimining barqarorligini ta‘minlashda ham asosiy huquqiy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Shu sababli ushbu institutning dolzarbligi masalasi bugungi kunda yanada kengroq o‘rganilishini talab etadi.

Jahonda, xususan, anglo-sakson huquq tizimida ushbu majburiyatlar tarixan ishonch huquqi (trust law) doirasida shakllangan bo‘lib, u adolat (*equity*) prinsiplariga tayangan. Bunday majburiyatlar “*sui generis*” ya‘ni shartnoma yoki zarardan kelib chiquvchi (delikt) majburiyatlardan farqlanuvchi o‘ziga xos huquqiy majburiyatlar, ya‘ni fidutsiar majburiyatlar sifatida tan olingan.<sup>1</sup> Kontinental huquq tizimi, xususan Germaniya huquqida esa, direktor majburiyatlar alohida doktrinal majburiyat sifatida ko‘rilmaydi. Aksincha, bunday majburiyatlar xususiy huquqning umumiy prinsiplaridan kelib chiqadi. Jumladan, sodiqlik majburiyati (*Treuepflicht*) va Germaniya Fuqarolik kodeksining (*BGB*) 242-moddasida nazarda tutilgan vijdonlilik va halollik (*Treu und Glauben*) tamoyillari shular jumlasidandir. Bunday majburiyatlar uchun javobgarlik alohida huquqiy choralar bilan emas, balki shartnomaviy yoki zarardan kelib chiquvchi (*delikt*) javobgarlik doirasida amalga oshiriladi.<sup>2</sup>

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga<sup>3</sup>, xususan, xo‘jalik jamiyatlarining ijro organi, kuzatuv kengashining fidutsiar majburiyatlari va ular bo‘yicha javobgarligini aniqlashtirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.<sup>4</sup> Shu sababli direktor majburiyatlari, xususan, fidutsiar majburiyatlar institutining nazariy asoslarini qiyosiy-huquqiy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va

<sup>1</sup> A Burrows, Principles of English Law of Obligations (Oxford University Press 2015) para 2.328

<sup>2</sup> S Markesinis, The German Law of Obligations, Volume II: The Law of Torts: A Comparative Introduction (Clarendon Press 1997), b 895

<sup>3</sup> “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.11.2022 yildagi PQ-415-son

<sup>4</sup> Normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi portali, “Xo‘jalik jamiyatlarining ijro organi, kuzatuv kengashi hamda majoritar aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) mas‘uliyatini oshirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi, ID-90058 <https://regulation.gov.uz/uz/d/90058>

aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni (2014), O'zbekiston Respublikasi "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni (2001), 2022-yil 8-noyabrdagi "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-415-sonli, 2024-yil, 19-apreldagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2021-yil, 29-martdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2021 — 2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mazkur dissertatsiya mavzusini tadqiq etishda xo'jalik jamiyatlari boshqaruv organlari, xususan, ijro organi sifatidagi direktorlarning huquqiy maqomi, ularning majburiyatlari va javobgarlik doirasini tartibga solishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari, ularni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti, arxiv hujjatlari hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilindi.

Shuni ta'kidlash lozimki, xo'jalik jamiyatlaridagi direktorning fidutsiar majburiyatlari doirasini huquqiy jihatdan belgilash, fidutsiar majburiyatlarning muhim tamoyillari bo'lgan halollik, oqillik va sadoqat masalalari O'zbekiston huquqshunos olimlari tomonidan to'liq va tizimli tarzda alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Biroq, mazkur mavzuning ayrim jihatlari mamlakatimizdagi qator yuridik olimlar — H.Raxmonqulov, I.Zokirov, S.Gulyamov, N.Imomov, A.Muxammadiyev, J.Yuldashev, O'.Xolmirzayev, D.Karaxodjayeva, D.Valiyev, M.Saidov, N.Murodov, M.Tadjibayevalar tomonidan qisman yoritilgan.<sup>1</sup>

MDH hududida ham xo'jalik jamiyatlarida boshqaruv organlari, xususan direktorlarning huquqiy maqomi va ularning majburiyatlariga oid masalalar olimlar tomonidan ilmiy tahlil etilgan. Jumladan, bu yo'nalishda E.Suxanov, A.Egorov, Y.Klyuchareva, I.Shitkina, I.Chuprunov, I.Zikun, Filipenkov va boshqa olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Ularning ishlari korporativ boshqaruvning huquqiy asoslari, ishonchli boshqaruv institutlari, direktorlarning javobgarligi va manfaatlar to'qnashuvini tartibga soluvchi normalarni tahlil qilishga bag'ishlangan.<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

<sup>2</sup> Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan

Xalqaro miqyosda ham xo‘jalik jamiyatlarida boshqaruv organlarining, xususan, direktorlarning huquqiy maqomi, ularning fidutsiar majburiyatlari va javobgarlik chegaralari keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo‘lgan. Jumladan, korporativ boshqaruv nazariyalari yo‘nalishida E.Dodd, A.Berle, M.Friedman, L.Bebchuk, S.Bainbridge, F.Easterbrook, D. Fischel, J.Velasco, F.Fama, A.Alchian, C.Coffee, C.Jensen, H.Meckling, A.Keay, J.Loughrey, J.Dean, M.Blair, L.Stoutlar, fidutsiar majburiyatlar yo‘nalishida A.Burrows, M.Conaglen, M.Eisenberg, R.Grantham, R.Nolan, L.Sealy, S.Worthington, P.Davies, J.Farrar, R.Zimmermann, A.Cahn kabi nufuzli olimlar tomonidan nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.<sup>1</sup>

Ushbu olimlarning ishlari korporativ boshqaruvning zamonaviy modelini huquqiy asosda tahlil qilish, kompaniya direktorlari zimmasidagi sadoqat, halollik, ehtiyotkorlik kabi fidutsiar majburiyatlarni aniqlashtirish, shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvi, ulushdorlar va manfaatdor tomonlar huquqlarining muvozanati, boshqaruv mas’uliyatining chegaralarini aniqlash kabi dolzarb masalalarga bag‘ishlangan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirilgan bo‘lib, u “Tadbirkorlik subyektlari faoliyati erkinligining kafolatlari va huquqiy himoya tizimini yanada mustahkamlash masalalari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** O‘zbekiston korporativ boshqaruv tizimida direktor majburiyatlari qanday tushunilishi, talqin qilinishi va amaliyotda qanday qo‘llanilishini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

direktor majburiyatlari nazariyasining konseptual asoslarini o‘rganish, ya’ni sadoqat, halollik, oqillik kabi fidutsiar tamoyillarning kelib chiqishi va huquqiy mohiyatini xalqaro yondashuvlar asosida tahlil qilish;

O‘zbekiston qonunchiligida direktor majburiyatlariga oid normalarni tahlil qilish orqali amaldagi qonun hujjatlarida ushbu majburiyatlar qanday shakllantirilganini o‘rganish va mavjud bo‘shliqlarni aniqlash;

direktor majburiyatlariga sud amaliyotida qanday yondashilayotganini tahlil qilish orqali ushbu institutga nisbatan amaliy talqinlarning izchilligini va samaradorligini o‘rganish;

xo‘jalik jamiyatlari direktorlari va iqtisodiy sud sudyalari tomonidan direktor majburiyatlarini tushunish, aniqlash hamda qo‘llashdagi konseptual muammolarni o‘rganish;

AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Rossiya kabi ilg‘or yuridik tizimlarda direktorlar majburiyatlari qanday huquqiy asosda tartibga solinayotganini qiyosiy

---

<sup>1</sup> Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan

taqqoslash hamda ushbu tajribalarni O‘zbekiston qonunchiligiga moslashtirish imkoniyatlarini baholash.

**Tadqiqotning obyekti:** O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik jamiyatlari (aksiyadorlik jamiyatlari va mas’uliyati cheklangan jamiyatlar)da korporativ boshqaruv doirasida direktorlarning huquqiy maqomi, xatti-harakatlari va ularning majburiyatlari bilan bog‘liq huquqiy munosabatlardir.

**Tadqiqotning predmeti:** O‘zbekiston Respublikasida direktor fidutsiar majburiyatlari (sadoqat, halollik, oqillik)ning huquqiy mazmuni, ularni qonunchilikda belgilash, amaliyotda qo‘llash va talqin etish bilan bog‘liq nazariy hamda amaliy yondashuvlar, shuningdek, ushbu institutning ingliz va nemis huquqiy tizimlari bilan qiyosiy tahlilidir.

**Tadqiqotning usullari:** Tadqiqotda tarixiy-huquqiy usul, doktrinal va qiyosiy-huquqiy usul, tizimli yondashuv hamda empirik (sotsiologik) usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi (direktor)ning umumiy majburiyatlari sifatidagi jamiyat ustavi asosida o‘ziga yuklatilgan vakolatlar doirasida jamiyatning foydasini ko‘zlab harakat qilishi, jamiyat muvaffaqiyatini qo‘llab-quvvatlashi kabi majburiyatlarini muhimligi asoslantirib berilgan;

xo‘jalik jamiyatlari direktorlarining jamiyat manfaati uchun halol va vijdonan harakat qilish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita jamiyat manfaatlariga zid keladigan harakatlardan tiyilishi kabi majburiyatlarini qonunchilikka kiritish zarurligi asoslantirib berilgan;

jamiyat o‘z majburiyatlari yuzasidan o‘ziga qarashli barcha mol-mulk bilan javobgar bo‘lishi, jamiyat ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmasligi va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘lishlari lozimligi asoslantirib berilgan;

jamiyatning to‘lovga qobiliyatsizligi shu jamiyat uchun majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi (direktor), kollegial ijro etuvchi organi yoki kuzatuv kengashi a‘zosi yoxud jamiyat ishtirokchisining g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo‘lsa, jamiyatning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda, bunday shaxs zimmasiga, agar jamiyat ustavida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, uning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi, agar zarar bir necha shaxs tomonidan yetkazilgan bo‘lsa, ular birgalikda solidar javobgar bo‘lishlari lozimligi asoslantirib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

direktor tushunchasi va fidutsiar majburiyatlar mohiyati bir qator doktrinalar hamda qarashlar asosida o‘rganilib, ushbu tushunchalarga mualliflik ta’riflari ishlab chiqilgan;

Fuqarolik kodeksi va tegishli maxsus qonunlarga biznes qarorlarini qabul qilishda asosli tavakkalchilik uchun javobgarlikni istisno etuvchi normalarni kiritish zarurligi asoslab berilgan;

Fuqarolik kodeksi va tegishli maxsus qonunlarga “*norasmiy*” va “*soya*” direktorlarning javobgarligini belgilovchi maxsus normalarni kiritish taklif qilingan;

Fuqarolik kodeksiga vakillik munosabatlari bo‘yicha vakilning majburiyatlarini aniq belgilash zarurligi asoslab berilgan;

Fuqarolik kodeksiga zarar yetkazilishidan kelib chiqadigan majburiyatlarda fidutsiar majburiyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish bo‘yicha normativ asoslar ishlab chiqish taklif qilingan;

Fuqarolik kodeksiga bitimning haqiqiy emasligi bilan bog‘liq normalarda vakolatni suiiste‘mol qilishga doir maxsus normalarni kiritish taklif etilgan;

sudlar uchun sadoqat, halollik, oqillik va adolat tamoyillarining korporativ munosabatlarda qo‘llanishi va ushbu tamoyillarning buzilganligini baholovchi milliy muhitga moslashtirilgan mezonlarni ishlab chiqish, “*norasmiy*” va “*soya*” direktor tushunchalariga huquqiy ta‘rif berishga qaratilgan Oliy Sud Plenum qarori konsepsiyasi taklif etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari xorijiy va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyoti hamda statistik va empirik ma‘lumotlarning tahlili asosida umumlashtirilgan. Natijalar rasmiy hujjatlar, ilmiy maqolalar va amaliy tavsiyalar bilan asoslangan, xulosalar esa korporativ huquq fanining ilg‘or nazariy yondashuvlariga tayangan holda ishlab chiqilgan.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar kelgusidagi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotida, milliy qonunchilikni takomillashtirishda manba sifatida qo‘llashda hamda korporativ huquq fanini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash hamda ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda hamda oliy yuridik ta‘lim muassasalarida xususiy huquq sohasidagi fanlarni o‘qitishda xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi (direktor)ning umumiy majburiyatlari sifatidagi jamiyat ustavi asosida o‘ziga yuklatilgan vakolatlar doirasida jamiyatning foydasini ko‘zlab harakat qilishi, jamiyat muvaffaqiyatini qo‘llab quvvatlashi to‘g‘risidagi majburiyatlarini belgilashdagi takliflari “Mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi qonunining yangi tahrirdagi loyihasi 44-moddasi birinchi qismining birinchi va ikkinchi bandlarida o‘z ifodasini topgan (Adliya vazirligining 2025-yil 14-fevraldagi 14/21-3/5-589-son dalolatnomasi). Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi xo‘jalik jamiyatlari

direktorlar tomonidan vakolat doirasidan chetga chiqish va vakolatni suiiste'mol qilish holatlarini oldini olishga xizmat qiladi.

jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi (direktor)ning jamiyat manfaati uchun halol va vijdonan harakat qilish, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita jamiyat manfaatlariga zid keladigan harakatlardan tiyilishi kabi majburiyatlarini belgilashdagi takliflari "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunining yangi tahrirdagi loyihasi 44-moddasi birinchi qismining uchinchi va to'rtinchi bandlarida o'z ifodasini topgan (Adliya vazirligining 2025-yil 14-fevraldagi 14/21-3/5-589-son dalolatnomasi). Ushbu taklif jamiyat direktorlarining majburiyatlarini aniq belgilash, direktorlarning hisobdorlik va javobgarligini yanada kuchaytirish, kompaniya va ulushdorlar oldidagi mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi;

jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga qarashli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'lishi, jamiyat ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmasligi va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'lishlari to'g'risidagi takliflari mazkur qonun loyihasining 4-moddasida o'z ifodasini topgan (Adliya vazirligining 2025-yil 14-fevraldagi 14/21-3/5-589-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi biznesda tavakkalchilikning oldini olish, investorlar huquqlari qonun himoyasida bo'lishini ta'minlashga xizmat qilgan;

jamiyatning to'lovga qobiliyatsizligi shu jamiyat uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi (direktor), kollegial ijro etuvchi organi yoki kuzatuv kengashi a'zosi yohud jamiyat ishtirokchisining g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo'lsa, jamiyatning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda, bunday shaxs zimmasiga, agar jamiyat ustavida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi, agar zarar bir necha shaxs tomonidan yetkazilgan bo'lsa, ular birgalikda solidar javobgar bo'lishlari mumkinligi to'g'risidagi takliflari mazkur qonun loyihasining 4-moddasida o'z aksini topgan (Adliya Vazirligining 2025-yil 14-fevraldagi 14/21-3/5-589-son dalolatnomasi). Mazkur norma korporativ boshqaruv tizimida mas'uliyatni sezilarli darajada oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarda sinovdan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAKning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 3 ta maqola, 3 tasi xorijiy nashrlardagi maqola va 3 tasi xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tuzilishi kirish, 14 ta paragrafn qamrab olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlaridan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etadi.



## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning oʻrganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobativiyasi, natijalarning eʼlon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida maʼlumotlar yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Ijro etuvchi organ (direktor) majburiyatlari doirasini belgilashning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida korporativ huquqda keng tarqalgan va oʻzaro raqobatdosh ikki asosiy yondashuv – anʼanaviy “ulushdorlar ustuvorligi” (**Shareholder Primacy Theory**) nazariyasi hamda zamonaviy “manfaatdorlar tomonlar ustuvorligi” (**Stakeholders Theory**) nazariyasi solishtirilib, ularning nazariy asoslari, qonunchilikdagi huquqiy talqinlari chuqur tahlil etilgan.

Shuningdek, mazkur bobda ushbu nazariyalarda direktorning oʻrni va roli qanday ekanligi, u kimning oldida majburiyatga ega ekanligi muhokama qilingan. Direktorning oʻrni va rolini muhokama qiluvchi ikki asosiy nazariyalar yaʼni agentlik nazariyasi (**Agency theory**) va jamoaviy ishlab chiqarish nazariyasi (**Team production theory**) oʻzaro solishtirilib, hozirgi zamonaviy korporativ boshqaruvda direktor faqatgina ulushdorlarning koʻrsatmalarini bajaruvchi *agent* sifatida emas, balki kompaniya boshqaruvida turli manfaatdor tomonlar manfaatlarini hisobga oluvchi **vositachi iyrarx (mediator)lar** sifatida namoyon boʻlayotganligi eʼtirof etilgan.

Ushbu oʻzgarib borayotgan korporativ boshqaruv muhitida boshqaruvni egalikdan ajratilishi (**separation ownership and control**) jaroyini muhim ekanligi, kompaniyani esa sunʼiy tuzilma sifatida emas, balki koʻproq manfaatdor tomonlar oʻrtasida tuzilgan shartnomalar toʻplami (**nexus of contract**) sifatida qarash gʻoyasi ilgari surilgan.

Tadqiqotchi ushbu masalalarning nazariy jihatlarini tahlil qilishda koʻplab huquqshunos olimlar (E.Dodd, A.Berle, M.Friedman, L.Bebchuk, S.Bainbridge, F.Easterbrook, D.Fischel, J.Velasco, F.Fama, A.Alchian, C.Coffee, C.Jensen & H.Meckling, A.Keay, J.Loughrey, J.Dean, M.Blair L.Stout, H.Rahmonqulov, S.Gulyamov, J.Yuldashev) fikr va qarashlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishgan.

Mazkur munozara yakunlariga koʻra, tadqiqotchi hozirgi global dunyoda shiddat bilan oʻzgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muhit asrlar davomida shakllangan qarashlarni savol ostiga olayotganligini, nazariy qarashlar mutloq emasligini, ularni mavjud muhitga moslashtirish yoki oʻzgartirish ehtiyoji kun tartibiga chiqayotganligini taʼkidlaydi. Masalan, hozirgi kunda rivojlangan

davlatlarda kompaniyalarning ijtimoiy javobgarligi (*corporate social responsibility*) g'oyasi kuchayib, endilikda kompaniyalardan o'zi mavjud bo'lgan jamiyat oldidagi ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik muammolar uchun javobgarlikni kuchaytirish asosiy e'tibor markazida bo'layotganligini ta'kidlagan.

Shu sababli tadqiqotchi mazkur bobda yuqorida tilga olingan nazariy qarashlarning O'zbekiston huquqiy tizimi va iqtisodiy muhitida qanday shakllanayotganligi, ularning amaliy ifodasi, shuningdek, xalqaro tajribada ilgari surilayotgan yangi nazariyalarni milliy huquqiy tizimga implementatsiya qilishdagi o'ziga xosliklarini ham o'rganib chiqqan. Jumladan, mazkur bobda xo'jalik jamiyatlarining axloqiy va huquqiy tabiati, ularning boshqaruvdagi yondashuvlari tahlil qilinib, korporativ boshqaruv nazariyalarini joriy etishda milliy muhitni chuqur anglash va hisobga olish zarurligi asoslab berilgan.

Shuningdek, tadqiqotchi, O'zbekiston korporativ boshqaruvi tizimi *an'anaviy ulushdorlar ustuvorligi* nazariyasi asosida qurilganligini, bunga asosiy sabab esa qonunchilikdagi ko'pgina normalar mustaqillikdan keyin Yevropa davlatlari, xususan, Germaniya va Niderlandiya davlatlaridan huquqiy transplantatsiya qilinganligi ilmiy dalillar bilan ochib bergan.

Shu bilan birga, tadqiqotchi direktor tushunchasi va uning rivojlangan davlatlardagi turli talqinlarini o'rganib, O'zbekiston qonunchiligida mavjud huquqiy bo'shliqlarni aniqlagan hamda uni bartaraf etish bo'yicha asoslangan takliflar bergan. Masalan, milliy amaliyotda ko'p uchrayotgan "*norasmiy*" direktorlarni javobgarlikka tortish mexanizmining yo'qligi, milliy qonunchilik esa, "*de-fakto*" va "*soya*" direktorlarning huquqiy maqomini aniq belgilanmaganligi, sudlarda esa "*norasmiy*" direktorlar javobgarlikdan chetda qolayotganligi natijasida yuzaga kelayotgan amaliy muammolar tahlil qilingan.

Tadqiqotchi "direktor" tushunchasiga ta'rif izlar ekan, ko'pgina davlatlar qonunchiligida direktor atamasiga aniq ta'rif berilmaganligini, ushbu atamaning aniq va umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emasligini ta'kidlaydi. Solishtirish uchun AQSH, Germaniya va Buyuk Britaniya korporativ huquq qonunchiligi o'rganilganda ham direktor atamasiga berilgan aniq ta'rif uchramaganligini bildiradi. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari qonunlarida<sup>1</sup> korporatsiyaning barcha ishlari direktorlar kengashi tomonidan boshqarilishi yoki nazorat qilinishi belgilangan bo'lsa, Buyuk Britaniya qonunchiligida esa "direktor" tushunchasi "har qanday nom bilan ataladigan direktor lavozimini egallayotgan shaxsni o'z ichiga olishi"ni ta'kidlangan.

Bu ta'rif tayinlangan rasmiy direktorlar bilan bir qatorda, direktor sifatida ishlayotgan, ammo rasmiy tayinlanmagan shaxslarni ham (**de facto direktorlar**) o'z ichiga oladi. Bu esa rasmiy yoki norasmiy ravishda direktor sifatida faoliyat yuritayotgan har qanday shaxsga mas'uliyat va potensial javobgarlik doirasini kengaytiradi.

Tadqiqotchi yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib "*direktor*" tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: direktor bu – kompaniyaning umumiy yig'ilishi tomonidan

---

<sup>1</sup> Delaware General Corporation Law (DGCL) section 141(a).

yoki kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanadigan, yoki har qanday nom bilan atalishidan qat'i nazar amalda kompaniya nomidan harakat qilish, tavakkalchilik asosida uning kunlik boshqaruvini amalga oshirish, strategik qarorlar qabul qilish va jamiyatning amaldagi qonun va qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash kabi huquq va vakolatlariga ega bo'lgan, o'zining nohalol va nooqilona harakatlari uchun kompaniyaga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lgan shaxs yoki shaxslar guruhi.

Dissertatsiyaning **“Direktorning fidutsiar majburiyatlari, uning turlari, tasnifi va qo'llanilish chegarasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida fidutsiar majburiyatning tarixiy shakllanishi, uning zamonaviy huquqiy konsepsiyalarda qanday ifodalanishi, shuningdek, uning axloqiy tamoyillar bilan qanday uzviy bog'liqligi atroflicha tahlil qilingan. Bu orqali direktorlarning kompaniya manfaatlariga sodiq qolgan holda oqilona qarorlar qabul qilishlari uchun qanday me'yoriy va axloqiy chegaralar mavjudligi ochib berilgan.

Tadqiqotchi mazkur bobda fidutsiar majburiyatlar institutini o'rganish jarayonida bir qator olimlar (A.Burrows, M.Conaglen, M.Eisenberg, R.Grantham, R.Nolan, L.Sealy, S.Worthington, P.Davies, J.Farrar, R.Zimmermann, A.Cahn, A.Muxammadiyev, O'.Xolmirzayev, M.Saidov, N.Murodov, M.Tadjibayeva)ning fikr va qarashlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishgan.

Mazkur bobda fidutsiar majburiyatlar institutining mohiyatini huquqiy munosabatlardagi o'ziga xos o'rniga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, fidutsiar majburiyatlar o'zining asosiy maqsadi va fidutsiar shaxslarga qo'yilgan qattiq talablari bilan o'ziga xos va mustaqil majburiyat (*sui generis*) sifatida fuqarolik huquqining shartnoma va ziyon yetkazish (*delikt huquqi*)dan kelib chiqadigan majburiyatlardan farq qilish asoslab berilgan.

Fidutsiar majburiyatlarning asosiy jihati shundaki, bu majburiyatlar yuksak ishonch asosidagi munosabatlar ustiga qurilgan bo'lib, u o'ziga ishonch bildirilgan shaxs (*fidutsiar*)dan, ishonch bildirgan shaxs (*benefitsiar*)ning manfaatlarida sodiqlik, halollik, g'amxo'rlik asosida harakat qilishini talab qiladi. Ya'ni vakilning vakolat bergan shaxs manfaatlariga sodiqlik asosida xizmat qilishi, o'ziga bildirilgan ishonchni har qanday ko'rinishda suiiste'mol qilmasligi, o'z harakatlarini halol, oqilona bajarishi ushbu munosabatlarda muhim hisoblanadi.

Tadqiqotchi, ushbu turdagi munosabatlar doirasidagi majburiyatlar to'liqligicha shartnomadan yoki ziyon yetkazish (delikt)dan kelib chiqadigan majburiyatlardan tubdan farq qilishini ta'kidlaydi. Shuningdek, ushbu turdagi majburiyatlar uchun javobgarlikni ko'rib chiqishda fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari bo'lgan halollik, oqillik va adolat prinsiplari muhim rol o'ynashini alohida e'tirof etadi.

Mazkur bobda ushbu turdagi munosabatlarni qanday qilib milliy fuqarolik qonunchiligida to'liq aks etmaganligi va hozirgi kunda esa ushbu munosabatlarni tartibga solishdagi ehtiyojning mavjudligi to'liq asoslantirib berilgan. Shuningdek, fidutsiar munosabatlar institutini milliy qonunchilikka joriy etishdagi to'siqlar hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlari muhokama qilingan.

Jumladan, tadqiqotchi O'zbekiston korporativ huquqining huquqiy transplantatsiyasi haqida so'z yuritar ekan, Sovet ittifoqi davrida xususiy mulkchilikning mavjud bo'lmaganligi natijasida fidutsiar munosabatlar institutining tarixiy va tadrijiy rivojlanmaganligini, mustaqillikdan keyingi post-sovet davlatlarida, xususan, O'zbekistonda ham ushbu institutning kech kirib kelishiga yoki to'liq huquqiy mexanizm sifatida shaklanmay qolishiga sabab bo'lgan muammolarni ilmiy faktlar bilan asoslab berishga harakat qilgan.

Tadqiqotchi milliy fuqarolik huquqi tizimida hanuzgacha fidutsiar munosabatlarning mazmun mohiyatini tushuntiruvchi, fidutsiar majburiyatlar doirasini belgilovchi huquqiy normalar to'liq shakllanmaganligini ta'kidlaydi. Masalan, Fuqarolik kodeksining 10-bobi vakillik munosabatlariga bag'ishlangan bo'lsada, biroq, ushbu bobdagi moddalarda vakillikning umumiy qoidalari to'liq ochib berilmagan, vakilning vakolatlari va uning fidutsiar majburiyatlari aniq belgilanmagan. Qonunchilikdagi ushbu bo'shliq esa jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda vujudga kelayotgan muammolarni to'liq hal etishga va nizolarning adolatli yechim topishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shuningdek, mazkur bobda fidutsiar majburiyatlarning huquqiy tabiati muhokama qilinib, uning tabiatan oldindan himoya qiluvchi **profilaktik himoya vositasi** sifatidagi xususiyati ochib berilgan. Bu xususiyat, fidutsiar majburiyatlar uchun javobgarlikda shunchaki zararni qoplash yoki buzilishlarni bartaraf etishdan ko'ra, zarar yuzaga kelishidan avval uni oldini olishga yo'naltirilgan **profilaktik choralar majmui** sifatida ajratib ko'rsatadi.

Fidutsiar majburiyatlarning buzilishi natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibat ham shartnomaviy majburiyatlar yoki ziyon yetkazish (delikt)dan kelib chiqadigan majburiyat oqibatlaridan o'zining og'ir talablari bilan farq qiladi. Bu talablar esa fidutsiar shaxslarga qo'yilgan yuqori darajadagi ishonch va sadoqatdan kelib chiqadi. Ushbu majburiyatlarni buzish uchun belgilangan asosiy javobgarliklardan biri bu nafaqat ko'rilgan zararni qoplash, balki olingan foydani to'liqligicha qaytarish va buzilgan huquqni asliga keltirish hisoblanadi.

Shuningdek, fidutsiar majburiyatlar bo'yicha javobgarlikda shartnomaviy munosabatlardagi kabi majburiyat uchun javobgarlikni o'zaro kelishuvga asosan o'zgartirish yoki voz kechish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Majburiyatning ushbu xususiyati muhim himoya mexanizmi vazifasini bajarib, u fidutsiar shaxslardan o'z majburiyati doirasini o'z sharoitlariga qarab o'zgartirish imkoniyatini cheklab, vakolat beruvchini potensial suiste'molliklardan himoya qilish vazifasini o'taydi.

Tadqiqotchi mazkur bobda fidutsiar majburiyatlar turlari sifatida sodiqlik (**duty of loyalty**), oqillik (**duty of care**) va halollik (**good faith**) majburiyatlarining huquqiy tabiatini alohida sharhlagan. Masalan, u sodiqlik majburiyatini muhokama qilar ekan, ushbu majburiyat fidutsiar munosabatlarda eng yuqori o'rinda turishini ta'kidlaydi. Ushbu majburiyat fidutsiar shaxslardan faqat o'z vazifalarini malakali bajarishni talab qilinmay, balki buni manfaatdor shaxs (benifitsiar)lar manfaati bilan

to'qnash kelmasdan, ularning manfaatlariga to'liq mos ravishda amalga oshirishlari kerakligini ta'lab qiladi.

Tadqiqotchi sodiqlik majburiyatining ichidagi eng asosiy qoidalar sifatida vakolatdan chetga chiqish (*ultra vires*) va vakolatni suiiste'mol qilish (*abuse of power*) doktrinalari muhim o'rin egallashini ta'kidlaydi. Mazkur doktrinalar direktorga berilgan vakolatlarni faqatgina kompaniyaning maqsadlari va manfaatlari yo'lida ishlatilishini ta'minlaydi. Vakolatlarni shaxsiy yoki boshqa noqonuniy maqsadlarda ishlatilishini ta'qiqlashda fidutsiar majburiyatlar o'zaro bog'lovchi va mustahkamlovchi huquqiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Izlanuvchi milliy fuqarolik qonunchiligida vakolatdan chetga chiqishni huquqiy tartibga solishga qaratilgan normalar mavjud bo'lsada, vakolatni suiiste'mol qilish bilan bog'liq huquqiy normalar mavjud emasligini alohida ta'kidlaydi. Masalan, u dissertatsiya doirasida ayrim sud ishlarini tahlil qilar ekan,<sup>1</sup> mavjud fuqarolik qonunchiligi yangi paydo bo'layotgan ijtimoiy munosabatlarni to'liq qamrab ololmayotganligini, ulushdorlarning huquqlarini himoya qiluvchi va direktorlarni o'z vakolatlarini suiiste'mol qilishdan tiyib turuvchi huquqiy mexanizmlar to'liq shakllantirilmaganligini ta'kidlaydi.

Shuni aytib o'tish kerakki, O'zbekistonning amaldagi fuqarolik qonunchiligida vakolatlarni suiiste'mol qilishning ta'sirini bartaraf etishga qaratilgan maxsus normativ-huquqiy hujjatlar mavjud emas. Masalan, Fuqarolik kodeksining bitimning haqiqiy emasligi bilan bog'liq (113-128) moddalarida faqat shartnoma va qonun talablariga zid bo'lgan, shuningdek, vakolatdan chetga chiqish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar haqiqiy emasligi tan olinadi. Biroq, vakolatni suiiste'mol qilgan holda tuzilgan bitimlarga doir alohida huquqiy qoidalar mavjud emas. Shu bois, korporativ munosabatlar va biznes yuritishda vakolatlarni suiiste'mol qilishning oldini olish va unga javobgarlikni kuchaytirish zarurati tug' ilmoqda.

Tadqiqotchi amaldagi qonunchilikda vakolatni suiiste'mol qilish holatlariga qarshi samarali huquqiy mexanizmlarning yetishmasligini va sud amaliyotida esa fuqarolik huquqining umumiy tamoyillariga tayangan holatda adolatni qaror toptirish tajribasining sust rivojlanganligidan havotir bildiradi.

Tadqiqotchi korporativ huquqiy munosabatlarda vakolatlarning suiiste'mol qilinishiga aniq huquqiy baho bera oladigan va bunday holatlarning oldini oluvchi maxsus normalarning milliy qonunchilikda mavjud emasligi huquqni qo'llash amaliyotida jiddiy bo'shliqni keltirib chiqarayotganligini ta'kidlaydi.

Shu munosabat bilan mazkur dissertatsiyada Fuqarolik kodeksining 126-moddasida qonunchilikning talablariga muvofiq bo'lmagan bitimning haqiqiy emasligi bilan birgalikda, vakolatni suiiste'mol qilish asosida tuzilgan bitimlarni haqiqiy emasligi bilan bog'liq yangi normalarni kiritish taklifi ilgari suriladi.

Tadqiqotchi fidutsiar majburiyat turlari bo'yicha tadqiqotini davom ettirar ekan, ushbu majburiyatlar orasida oqillik majburiyati alohida o'rin tutishini ta'kidlaydi. Bu majburiyat, bir tomondan, kompaniya manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, direktorning o'z lavozim vazifalarini halollik,

---

<sup>1</sup> Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining 4-1001-2213/56554-sonli iqtisodiy ishi

professionallik va ongli ehtiyotkorlik asosida amalga oshirishini ta'minlaydi. Oqillik majburiyatining ildizlari Rim huquqi davriga borib taqalsada, u zamonaviy huquqiy tizimlarda o'ziga xos shakl va mazmun kasb etib kelmoqda. Xususan, Buyuk Britaniya va AQSh kabi ilg'or yurisdiksiyalarda bu majburiyat kompaniya boshqaruv organlari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy prinsiplardan biri sifatida rivojlangan.

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu majburiyatning tub mohiyatida axloqiy va huquqiy tamoyil yotadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, shaxs o'z harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida asossiz zarar ko'rishi mumkin bo'lgan har bir kishiga nisbatan ehtiyotkorlik va g'amxo'rlik asosida harakat qilish majburiyatiga ega hisoblanadi.

Tadqiqotchi post-sovet davlati sifatidagi Rossiya federatsiyasi korporativ huquqida ham direktorlarning oqillik majburiyati tobora mustahkamlanib borayotganligini, ushbu majburiyatni ingliz huquqida shakllangan **“duty of care”** tamoyili bilan taqqoslab, uni Rossiya Fuqarolik kodeksida belgilangan **“oqillik” (разумность) va “vijdonlilik” (добросовестность)** prinsiplari bilan uyg'un deb baholaydi.<sup>1</sup>

Shuningdek, izlanuvchi fidutsiar majburiyatlar ichida muhim o'rin tutadigan **halollik (good faith)** majburiyatiga to'xtalar ekan, ushbu majburiyat odatda sodiqlik va oqillik majburiyatlarining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishini va majburiyatlar buzilganligini aniqlovchi huquqiy vosita sifatida ishlatilishini ko'rsatadi.

Masalan, halollik tamoyilining huquqni suiiste'mol qilishga yo'l qo'ymaslikdagi roli ham muhimdir. Tomonlar huquq va majburiyatlarini halol niyatda amalga oshirishlari, ularni faqat qonuniy va adolatli maqsadlarda qo'llashlari lozim. Aks holda, sudlar tomonidan nohalol harakatlar huquqni suiiste'mol qilish deb baholanib, bitimlarning haqiqiy emasligiga olib keladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, halollik majburiyati o'zining huquqiy tabiati jihatidan sodiqlik va oqillik majburiyatlaridan farqlanadi. An'anaviy fidutsiar majburiyatlar hisoblangan sodiqlik va oqillik majburiyatlari barcha turdagi huquqbuzarliklarni to'liq qamrab ololmaydi. Masalan, sodiqlik majburiyatining asosiy mohiyati direktorning shaxsiy manfaatlarini kompaniya manfaatlaridan ustun qo'yishining oldini olishga qaratilgan bo'lsa, oqillik majburiyati esa direktorning kompaniya manfaatlariga ehtiyotkorlik va oqilona qarorlar asosida yondashishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Biroq shunday huquqbuzarliklar borki, ular sodiqlik va oqillik majburiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri buzmasa ham, halollik majburiyati doirasida baholanadi va huquqiy jihatdan hal etiladi.

Tadqiqotchi halollik majburiyatini boshqa fidutsiar majburiyatlardan huquqbuzarlik uchun to'g'ridan-to'g'ri javobgarlikni cheklash xususiyati bilan ajralib turishini ko'rsatadi.

---

<sup>1</sup> Bernard Black and others. Legal liability of directors and company officials Part 1: Substantive grounds for Liability (Report to the Russian Securities Agency) ECGI LAW WORKING PAPER. Columbia Business Law Review, pp. 614-799, 2007. 666-bet.

Shuningdek, izlanuvchi tomonidan dissertatsiyaning mazkur bobida fidutsiar munosabatlarning huquqiy tabiatini chuqur tahlil qilish bilan birga, ularning O‘zbekiston huquqiy tizimida to‘laqonli shakllanmasdan qolayotganligining sabablarini aniqlashga e’tibor berilgan. Bunda milliy huquqiy va ijtimoiy muhitning o‘ziga xos xususiyatlari, huquqiy tafakkurdagi an’anaviy yondashuvlar hamda institutsional tuzilmalarning yetarlicha rivojlanmagani kabi omillar alohida tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Xo‘jalik jamiyatlarida direktor majburiyatlarini tushunish, aniqlash va qo‘llashdagi muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari”** deb nomlangan uchinchi bobi ko‘proq konsepsual muammolarga bag‘ishlangan bo‘lib unda fidutsiar majburiyatlar institutining mazmun mohiyatini direktorlar tomonidan amaliyotda tushunilishi va his qilinishi hamda sudlar tomonidan fidutsiar majburiyatlarni aniqlash, baholash va qo‘llashdagi muammolar muhokama qilingan.

Tadqiqotchi mazkur bobda milliy qonunchilik va biznes muhitidagi muammolarni o‘rganishda olimlar (L.Enriques, H.Raxmonqulov, S.Gulyamov, N.Imomov, J.Yuldashev, O‘.Xolmirzayev, M.Saidov) fikr-mulohazalaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishgan.

Izlanuvchi ushbu muammolarni o‘rganish va tahlil qilish maqsadida O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kompaniya direktorlari va iqtisodiy sud sudyalari o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazgan.

Tadqiqotchi O‘zbekistonda kompaniya direktorlari o‘z majburiyatlarini, ayniqsa, fidutsiar majburiyatlari mohiyatini yetarli darajada tushunmasligini korporativ boshqaruvning samarali faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri deb biladi. Direktorlarning kompaniya manfaatlariga sodiqlik bilan xizmat qilish, halollik, adolat va oqilona boshqaruv asosida harakat qilish majburiyatlari xorijiy korporativ boshqaruv amaliyotida asosiy tamoyillar sifatida qaralsada, O‘zbekiston tajribasida bu tamoyillar hali to‘liq qonunchilikda mustahkamlab qo‘yilmaganligi va amaliyotda esa umuman joriy etilmaganligiga alohida e’tibor qaratadi.

Amaliyotda ko‘p hollarda direktorlar o‘z vazifasini bajarishda kompaniya manfaatlarini emas, balki uning asoschilari, qarindoshlari yoki o‘z shaxsiy manfaatlarini ustun qo‘yayotganligini, bu holat esa ularga ishonib topshirilgan vakolatlarni suiiste’mol qilishga, manfaatdorlik mavjud bo‘lgan bitimlar tuzishga, axborotlarni yashirish yoki moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish singari ko‘plab xavfli xatti-harakatlarni sodir etilishiga olib kelayotganligini ta’kidlaydi. Natijada, ushbu holatlar nafaqat kompaniya manfaatlari, balki ulushdorlar, xodimlar, kreditorlar va hatto davlatning iqtisodiy barqarorligini xavf ostiga qo‘yayotganligini ta’kidlaydi.

Direktorlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ularning aksariyati kompaniya boshqaruvidagi o‘z rolini mustaqil va yakka tartibda amalga oshirayotganligini hamda ulushdorlar va umumiy yig‘ilish oldida muayyan majburiyatlarga ega ekanligini, o‘z zimmasidagi boshqaruv majburiyatlarini yaxshi

anglashlari va moddiy javobgarlikni his qilishlarini ta'kidlagan bo'lsalar, ularning ayrimlari hanuzgacha kompaniya boshqaruvida ulushdorlarning aralashuvi ostida harakat qilayotganliklarini, o'z majburiyatlari mazmuni va bu majburiyatlar buzilganda qanday javobgarlik yuzaga kelishini aniq tushunmasliklarini bildirganlar.<sup>1</sup> Ayniqsa, ehtiyotkorlik va g'amxo'rlik qilish hamda shartnomaviy majburiyatlar borasida ularning xabardorlik darajasi past ekanligi ayon bo'lgan. Bu esa direktorlar o'rtasida fidutsiar majburiyatlar institutiga oid huquqiy ong va madaniyatning bir xilda shakllanmaganligini anglatadi.

